



GLOBALLASHUV VA RAQOBAT SHAROITIDA O'ZBEKISTON TIJORAT  
BANKLARIDA TRANSFORMATSIYA JARAYONLARINI O'TKAZISHNING MUHIMLIGI  
VA UNING KELGUSI ISTIQBOLLARI

Nizamov Umid

"Hamkorbank" aksiyadorlik tijorat banki

ORCID: 0009-0000-9072-5870

[umidnizamov52@gmail.com](mailto:umidnizamov52@gmail.com)

**Annotatsiya.** Maqolada globallashuv va raqobat sharoitida O'zbekiston tijorat banklarining transformatsiya jarayonlarini amalga oshirishning ahamiyati va kelgusi istiqbollari tahlil qilinadi. Ushbu tadqiqotda, tijorat banklarining zamonaviy iqtisodiy sharoitda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun qanday o'zgarishlar zarurligi, ularning raqobatbardoshligini oshirish va global moliya tizimiga integratsiya qilish yo'llari ko'rsatiladi. Maqola O'zbekiston bank tizimining transformatsiyasi jarayonidagi muammolarni va bu jarayonlarni amalga oshirishdagi ijtimoiy, iqtisodiy va texnologik omillarni o'rGANADI. Yangi texnologiyalarni joriy etish, raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish, hamda banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha takliflar ilgari suriladi. Shuningdek, O'zbekiston tijorat banklarining global raqobatga moslashishidagi istiqbollarini tahlil qilish orqali mamlakat bank tizimining barqarorligini mustahkamlashga doir chora-tadbirlar taqdim etiladi.

**Kalit so'zlar:** globallashuv, raqobat, tijorat banklari, transformatsiya, bank tizimi, raqamli texnologiyalar, moliyaviy barqarorlik, bank islohotlari, raqamli xizmatlar.

ЗНАЧИМОСТЬ ПРОВЕДЕНИЯ ТРАНСФОРМАЦИОННЫХ ПРОЦЕССОВ В  
КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ УЗБЕКИСТАНА В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ И  
КОНКУРЕНЦИИ И ИХ ДАЛЬНЕЙШИЕ ПЕРСПЕКТИВЫ

Низамов Умид

Акционерно-коммерческий банк «Hamkorbank»

**Аннотация.** В статье рассматриваются важность проведения процессов трансформации в коммерческих банках Узбекистана в условиях глобализации и конкуренции, а также их будущие перспективы. Исследуется, какие изменения необходимы для успешной деятельности коммерческих банков в современных экономических условиях, а также пути повышения их конкурентоспособности и интеграции в глобальную финансовую систему. Особое внимание уделяется проблемам трансформации банковской системы Узбекистана, а также социальным, экономическим и технологическим факторам, влияющим на данный процесс. В статье предложены рекомендации по внедрению новых технологий, развитию цифровых банковских услуг и обеспечению финансовой стабильности банков. Анализируется будущее коммерческих банков Узбекистана в контексте глобальной конкуренции и предлагаются меры для укрепления финансовой устойчивости банковской системы страны.

**Ключевые слова:** глобализация, конкуренция, коммерческие банки, трансформация, банковская система, цифровые технологии, финансовая стабильность, банковские реформы, цифровые услуги.

**THE IMPORTANCE OF CARRYING OUT TRANSFORMATION PROCESSES IN UZBEK COMMERCIAL BANKS IN THE CONTEXT OF GLOBALIZATION AND COMPETITION AND ITS FUTURE PROSPECTS**

**Nizamov Umid**  
Joint-stock commercial bank "Hamkorbank"

**Abstract.** The article discusses the importance of implementing transformation processes in Uzbekistan's commercial banks under globalization and competitive conditions, as well as their future prospects. The study highlights the necessary changes for the successful operation of commercial banks in modern economic conditions, their ways of increasing competitiveness, and integrating into the global financial system. The article explores the challenges faced by Uzbekistan's banking system in the transformation process and examines the social, economic, and technological factors influencing this process. Recommendations are proposed for introducing new technologies, developing digital banking services, and ensuring the financial stability of banks. Furthermore, the future prospects of Uzbekistan's commercial banks in the context of global competition are analyzed, with measures proposed for strengthening the financial stability of the country's banking system.

**Keywords:** globalization, competition, commercial banks, transformation, banking system, digital technologies, financial stability, banking reforms, digital services.

**Kirish.**

Zamonaviy iqtisodiyotda globallashuv jarayoni barcha mamlakatlarning moliyaviy tizimiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Xalqaro bozorlarning integratsiyalashuvi, raqamli texnologiyalarning rivojlanishi va yangi iqtisodiy modelning shakllanishi bank sohasida ham muhim o'zgarishlarni talab qilmoqda. Ayniqsa, tijorat banklari uchun globallashuv sharoitida raqobatbardoshlikni oshirish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash muhim strategik vazifa hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar doirasida bank tizimini modernizatsiya qilish va transformatsiya jarayonlarini jadallashtirish asosiy yo'naliishlardan biri sifatida qaralmoqda. Bank xizmatlarini raqamlashtirish, mijozlarga qulay va innovatsion moliyaviy yechimlarni taqdim etish, shuningdek, xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni kengaytirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Ushbu maqolada O'zbekiston tijorat banklarining transformatsiya jarayonlarining ahamiyati, ushbu jarayonlarning asosiy yo'naliishlari hamda ularning kelgusi istiqbollari tahlil qilinadi. Shuningdek, bank tizimini modernizatsiya qilish jarayonida duch kelinayotgan asosiy muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqiladi. Maqolaning asosiy maqsadi – O'zbekiston bank sektorini xalqaro standartlarga mos holda rivojlantirish hamda uning global moliya tizimiga integratsiyasini jadallashtirish uchun samarali strategiyalarni aniqlashdan iborat.

**Adabiyotlar sharhi.**

O'zbekiston tijorat banklarida transformatsiya jarayonlarini amalga oshirish zarurati bugungi kunda globallashuv va kuchayib borayotgan raqobat sharoitida yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada olib borilgan ilmiy tadqiqotlar, xalqaro tajribalar va milliy qonunchilik hujjatlari transformatsiya jarayonining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bank tizimi transformatsiyasining nazariy asoslari Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi (IMF) va boshqa xalqaro moliyaviy institutlar tomonidan keng tahlil qilingan. Masalan:

Joseph Stiglitz va Andrew Weiss (1981) tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar kredit bozorlarida axborot assimetriyasini va bank tizimining samaradorligi bilan bog'liq muammolarni

ko'rsatib berdi. Bu muammolar transformatsiya jarayonida banklarning raqamli texnologiyalarga o'tish zaruratini belgilaydi.

Levine (2005) o'zining "Finance and Growth: Theory and Evidence" asarida bank transformatsiyasining iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini o'rgangan. U bank tizimi va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'lilikni ochib bergan bo'lib, O'zbekiston bank tizimining transformatsiyasi ham mamlakat iqtisodiy o'shining ajralmas qismi ekanligini ta'kidlaydi.

Demirguc-Kunt va Klapper (2012) "Measuring Financial Inclusion" nomli ishida moliyaviy inklyuziyaning bank transformatsiyasidagi o'rni va ahamiyatini o'rganadi. Ushbu tadqiqotlar O'zbekiston bank tizimida raqamli bank xizmatlarini kengaytirish va moliyaviy inklyuziyani oshirish zaruriyatini ko'rsatadi.

O'zbekistonda tijorat banklarini transformatsiya qilish, ularning raqamli bank xizmatlariga moslashuvi va xalqaro bozorga chiqish masalalari bo'yicha qator milliy tadqiqotchilar va muassasalar tomonidan ilmiy ishlar olib borilgan:

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki (2023) tomonidan chop etilgan "O'zbekiston bank tizimining rivojlanish tendensiyalari va istiqbollari" hisobotida bank tizimini modernizatsiya qilish va raqamli transformatsiya jarayonlari bo'yicha strategik yo'nalishlar keltirilgan.

Jalolov, Abduqodirov (2021) tomonidan yozilgan "Tijorat banklari va moliyaviy barqarorlik: O'zbekiston tajribasi" kitobida O'zbekiston tijorat banklarining raqamli transformatsiyasi, risklarni boshqarish va xalqaro moliya tizimiga integratsiya jarayonlari tahlil qilingan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni (2022) "Bank tizimini modernizatsiya qilish va moliyaviy inklyuziyani kengaytirish bo'yicha chora-tadbirlar" hujjatida bank xizmatlarining transformatsiya jarayonini jadallashtirish, jumladan, raqamli bank xizmatlarini joriy etish va moliyaviy xizmatlarning hamma uchun ochiqligini ta'minlash bo'yicha strategik yo'nalishlar belgilangan.

Morduch (1999) "The Microfinance Promise" asarida mikrofinanslash tizimining rivojlanishi va raqamli texnologiyalarning moliyaviy xizmatlarga ta'siri o'rganilgan.

Helms (2006) "Access for All: Building Inclusive Financial Systems" nomli tadqiqotida bank transformatsiyasi jarayonida moliyaviy inklyuziya va fintech xizmatlarining o'rni muhimligini ta'kidlagan.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi (2023) tomonidan tayyorlangan "Raqamli moliyaviy xizmatlarning rivojlanishi" hisobotida fintech startaplari, blokcheyn texnologiyalari va onlayn banking tizimlarini rivojlantirish masalalari ko'rib chiqilgan.

O'zbekistonda bank tizimining transformatsiyasi global tendensiyalar va milliy iqtisodiy ehtiyojlar asosida shakllanmoqda. So'nggi yillarda bank sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, jumladan, davlat ulushi yuqori bo'lgan banklarni xususiylashtirish, fintech kompaniyalari bilan integratsiyani oshirish va mijozlarga qulay raqamli xizmatlarni joriy etish yo'nalishlari dolzarb bo'lib qolmoqda.

Yuqoridagi adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadi, O'zbekiston tijorat banklarining globallashuv sharoitida transformatsiya jarayonlarini amalga oshirish bo'yicha xalqaro tajribalarni o'rganish, mahalliy sharoitga mos strategiyalar ishlab chiqish va zamonaviy raqamli texnologiyalarni keng tatbiq etish muhim hisoblanadi. Bu esa banklarning xalqaro moliyaviy tizimga integratsiyalashuvi va mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Ushbu tadqiqotda globallashuv va kuchayib borayotgan raqobat sharoitida O'zbekiston tijorat banklarida transformatsiya jarayonlarini o'rganish, ularning samaradorligini oshirish va kelgusidagi istiqbollarni baholash metodologik yondashuvlar asosida amalga oshiriladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – tijorat banklari transformatsiyasining zaruriyati, muammolari

va rivojlanish yo'nalishlarini aniqlash hamda ilg'or xalqaro tajribalar asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot jarayonida iqtisodiy tahlil, statistik ma'lumotlarni qayta ishlash, taqqoslash, ekspert baholash hamda empirik usullar ishlatildi.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

Globallashuv va kuchayib borayotgan raqobat sharoitida O'zbekiston tijorat banklarining transformatsiyasi muhim strategik jarayon bo'lib, u bank tizimining barqarorligini oshirish, moliyaviy xizmatlarning sifatini yaxshilash va mijozlar bazasini kengaytirish uchun zarur hisoblanadi. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, O'zbekiston bank tizimi so'nggi yillarda tub islohotlar jarayonidan o'tmoqda.


**1-jadval**

### **Tijorat banklari transformatsiyasining samaradorligini baholashning SWOT-tahlil natijalari**

Tarkibiy jihat	Tavsif
Kuchli tomonlar	Davlat torronidan qo'liab-qjwatiash, bankfamini rrodemizatsiya qilish bo'yicha strategy dasturiar mavjudligi.
Zaif tomonlar	Ochik va o'rta b'zres uchun moiyyaviy xizmatiaming yetarii darajada rivoj'anmagani, IT infratu ziimaning to'iil shaldlanmagani.
Imkoniyatlar	Xaiqaro investoriами jalb qilish, fintech hamkonikJari va sunly intellekt asosidagi xzmatiami rivojlantirish.
Tahdidlar	Global iqtisodiy beqaroriik, kiberxavfsiziik muammoiari, xaqaro raqobatning ortishi.

**Manba:** muallif ishlanmasi.

O'zbekiston tijorat banklari uchun globallashuv va raqobat sharoitida transformatsiya jarayonlarini o'tkazish strategik zaruriyatga aylanib bormoqda. Raqamli texnologiyalarni joriy etish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish va moliyaviy inklyuziyani oshirish orqali banklar o'z xizmatlarini yanada samarali taqdim eta oladi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, to'g'ri yo'lga qo'yilgan transformatsiya jarayoni nafaqat tijorat banklarining daromadliligini oshirishga, balki O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga ham xizmat qiladi.



**1-rasm. AQSh hududida to'lov shakllari bo'yicha iste'mol to'lovlarining o'rtacha oylik hajmi (mlrd.AQSh dollarida)**

Shunday qilib, ilmiy adabiyotlarda innovatsion jarayonlarning natijalarini belgilovchi omillar yetarli darajada batafsil o'rganilgan. Ko'pgina olimlar tadbirkorlik subyektiga nisbatan innovatsion rivojlanish omillarining ikkita katta guruhini ajratib ko'rsatishadi: tashqi va ichki muhit omillari. Har doim tashqi va ichki omillar o'rtaida dialektik o'zaro ta'sir va o'zaro bog'liqlik mavjud: ichki omillar rivojlanish dvigateli, tashqi omillar esa rivojlanish uchun sharoitdir.

### 2-jadval

#### 2023-yilda internet tezligi bo'yicha mamlakatlar reyting

Reyting	Mamlakat	2018-yil, Mbit/s	2022-yil, Mbit/s	2023-yil, Mbit/s	O'zgarish, %
1	Singapur	161,53	194,07	237,15	22,2
2	Xitoy	68,33	155,87	226,77	45,5
4	Chili	36,95	197,59	224,44	13,6
6	Tailand	41,35	182,96	203,28	11,1
7	Daniya	81,98	164,14	200,62	22,2
8	Gonkong	129,64	163,37	198,53	21,5
9	AQSh	84,66	146,17	198,17	35,6
10	Ispaniya	68,42	135,73	180,30	32,8
91	O'zbekiston	6,39	37,91	45,20	19,2

Yuqorida jadvaldan ko'rindaniki mamlakatimizda solishtirganda internet tezligi bir oz past bo'lib, reytingdagi 180 ta davlatlar ichida 91 o'rinni egalladi. Qo'yidagi jadvalda biz O'zekistonda aholi yoshiga qarab bank xisobraqami mavjudligini ko'rishimiz mumkin. Jadvaldan ko'rindaniki bank mijozlarining asosiy qismi yoshlarga to'g'ri keladi. Ko'rib chiqilgan omillarni hisobga olgan holda va innovatsion jarayonni rag'batlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, shuningdek, raqobatbardosh milliy innovatsion tizimni shakllantirish orqali muvozanatli, barqaror va ijtimoiy yo'naltirilgan rivojlanish omili bo'ladigan iqtisodiy o'sishga erishish mumkin.

### 3-jadval


#### Moliyaviy sektorda IT xarajatlari, 2019-2020-yillarda milliard dollar

	Затраты в 2019 г., \$млрд	Рост затрат в 2019 г., %	Затраты в 2020 г., \$млрд	Рост затрат в 2020 г., %
Внутренние ИТ-службы	92,043	2,1	87,871	-4,5
Корпоративное ПО	100,822	11,8	100,58	-0,2
ИТ-услуги	204,536	5	195,576	-4,4
Устройства	33,216	5,9	29,199	-12,1
Коммуникационные сервисы	77,285	1,3	72,946	-5,6
Дата-центры	31,218	1	27,757	-11,1
<b>Всего</b>	<b>539,121</b>	<b>4,9</b>	<b>513,928</b>	<b>-4,7</b>

*Manba:* Gartner, (2020).

Yangi texnologiyalarni joriy etish va dolzarbligini ta'minlash uchun yuqori xarajatlar. Banklar yangi texnologiya va dasturiy ta'minotlarni joriy etaman deb xarajatlari oshganda boshqa bank uchun o'rnatilgan normalarni bajarolmay qolish ehtimoli yuzaga kelishi mumkin.

Gartner tadqiqotchilari tadqiqotiga ko'ra moliya tizimda 2019-yilda IT harajatlari yeyarli 5 foizga oshib 539,121 mldr AQSH dollarini tashkil qilgan bo'lsa 2020- yilga kelib 4.7 foizga kamaygan va 2021-yilga kelib 2.8 foizga yana ko'tarilgan.O'zbekistonda statistik ma'lumotlarni tahlil qiladigan bo'lsak, 2023-yilning 1-yanvar holatida mamlakatimiz tijorat banklari jami harajatlari 64254 mldr so'mni tashkil qilgan bo'lsa shundan 24 foizi ya'ni 14877 mldr so'mi operatsion harajatlarga to'g'ri kelgan. Tijorat banklarining kambag'allikni qisqartirishdagi ishtirokini oshirishda ko'plab kuchli tomonlar mavjud, jumladan moliyaviy resurslar, keng mijoz bazasi va innovatsion texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlari. Biroq, kredit siyosatining qat'iyligi, kam moliyaviy inkluyuziya va raqamli bo'shliqlar kabi zaif tomonlar banklarning ijtimoiy mas'uliyatini oshirishda to'siq bo'lishi mumkin. Imkoniyatlar sifatida mikroqarzlar va fintech texnologiyalarining rivojlanishi, xalqaro hamkorlik va ijtimoiy mas'uliyatni kuchaytirish borasidagi yutuqlarni keltirish mumkin. Biroq, iqtisodiy beqarorlik, yuqori foiz stavkalari va banklararo raqobat tahdidlarni keltirib chiqarishi mumkin.



**2-rasm. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari harajatlari (foizda)**  
(Xudayarova, 2024)

Shu sababli, tijorat banklarining kambag'allikni qisqartirishdagi ishtirokini oshirish uchun mavjud kuchli tomonlarni yanada rivojlantirib, zaif tomonlarni bartaraf etish, imkoniyatlarni samarali qo'llab-quvvatlash va tahdidlarga qarshi aniq strategiyalar ishlab chiqish zarur.

#### Xulosa va takliflar.

Globallashuv va kuchayib borayotgan raqobat sharoitida O'zbekiston tijorat banklarining transformatsiyasi iqtisodiy barqarorlik va moliyaviy xizmatlar sifatini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki:

Tijorat banklarida raqamli texnologiyalarni joriy etish va fintech ekotizimini rivojlantirish jarayoni jadallahmoqda, ammo banklarning IT infratuzilmasi va kiberxavfsizlik masalalari hali to'liq shakllanmagan. Xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kengaytirish, investitsiyalar jalg qilish va kapital yetarlilagini oshirish banklar barqarorligini ta'minlashning muhim omillaridan biri bo'lib qolmoqda.

Moliyaviy inkluyuziyani kengaytirish orqali aholi va kichik biznes subyektlariga bank xizmatlarini yanada qulaylashtirish imkoniyati mavjud. Biroq, bu jarayonda huquqiy tartibga

solist, xalqaro standartlarga moslashish va bank tizimidagi byurokratik to'siqlarni bartaraf etish talab etiladi.

Transformatsiya jarayonining muvaffaqiyati bevosita banklarning innovatsion rivojlanish strategiyalari, raqobatbardoshlik darajasi va xalqaro moliya bozorlariga integratsiyasi bilan bog'liq. Shuningdek, raqamli bank xizmatlarining ommalashuvi bank mijozlarining talab va ehtiyojlariga mos keladigan yangi mahsulot va xizmatlarni yaratish zaruratinu tug'diradi.

O'zbekiston tijorat banklarida transformatsiya jarayonlarini samarali amalga oshirish uchun quyidagi strategik takliflar ilgari suriladi:

- Sun'iy intellekt va big data texnologiyalaridan foydalanish orqali mijozlarga moslashtirilgan bank xizmatlarini rivojlantirish.
- Mobil ilovalar va internet-banking xizmatlarini takomillashtirish, to'lov tizimlarini diversifikatsiya qilish.
- Blockchain texnologiyasini joriy etish orqali tranzaksiyalar shaffofligini oshirish va kiberxavfsizlikni kuchaytirish.
- Soddalashtirilgan onlayn kreditlash tizimlarini yaratish va kichik biznes uchun maxsus bank mahsulotlarini ishlab chiqish.
- Yangi moliyaviy vositalarni joriy etish (masalan, crowdfunding va peer-to-peer lending platformalari).
- Kichik biznes uchun imtiyozli kredit dasturlarini kengaytirish va ularga moliyaviy xizmatlarni soddalashtirish.
- Xalqaro kredit reytinglarini yaxshilash va xorijiy investorlarni jalb qilish bo'yicha aniq strategiyalar ishlab chiqish.
- Bank sektorini xalqaro standartlarga moslashtirish (Basel III talablariga muvofiqlik darajasini oshirish).
- Xorijiy banklar bilan strategik hamkorlikni kengaytirish va moliyaviy texnologiyalar bo'yicha ilg'or tajribalarni o'zlashtirish.
- Bank xizmatlarining geografik qamrovini oshirish – qishloq joylarda mobil banking xizmatlarini rivojlantirish.
- Ijtimoiy zaif guruqlar uchun bank xizmatlarini soddalashtirish va ularga moslashtirilgan kredit mahsulotlarini taklif etish.
- Aholining moliyaviy savodxonligini oshirish uchun o'quv dasturlarini yo'lga qo'yish.
- Bank tizimida zamonaviy kiberxavfsizlik choralarini joriy etish va ma'lumotlarni shifrlash tizimlarini takomillashtirish.
- Fraud monitoring tizimlarini rivojlantirish va onlayn banking xavfsizligini oshirish.
- Xodimlarning kiberxavfsizlik bo'yicha malakasini oshirish uchun maxsus treninglar tashkil etish.

Tijorat banklarining transformatsiya jarayonlari O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror o'sishiga hissa qo'shishi bilan birga, bank tizimini xalqaro moliyaviy muhitga integratsiya qilish imkoniyatlarini kengaytiradi. Yuqorida keltirilgan takliflar amalga oshirilsa, mamlakat bank sektorining raqobatbardoshligi oshib, mijozlarga yanada qulay va innovatsion moliyaviy xizmatlar taqdim etish imkoniyati yaratiladi.

Shu bois, transformatsiya jarayonini tizimli va bosqichma-bosqich amalga oshirish, ilg'or xalqaro tajribalarni joriy etish va raqamli texnologiyalarni keng qo'llash banklarning kelgusi rivojlanishining asosiy omili bo'lib qolishi lozim.

#### ***Adabiyotlar /Jumepamypa/Reference:***

*Demirguc-Kunt, A., & Klapper, L. (2012). Measuring Financial Inclusion: The Global Findex Database. Washington, DC: The World Bank.*

*Helms, B. (2006). Access for All: Building Inclusive Financial Systems. Washington, DC: CGAP.*

Jalolov, F., Abduqodirov, A. (2021). *Tijorat banklari va moliyaviy barqarorlik: O'zbekiston tajribasi*. Toshkent: Iqtisodiyot va moliya nashriyoti.

Levine, R. (2005). *Finance and Growth: Theory and Evidence. Handbook of Economic Growth*, 1, 865-934. [https://doi.org/10.1016/S1574-0684\(05\)01012-9](https://doi.org/10.1016/S1574-0684(05)01012-9).

Morduch, J. (1999). *The Microfinance Promise. Journal of Economic Literature*, 37(4), 1569-1614.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. (2023). *O'zbekistonda kambag'allik darajasini pasaytirish bo'yicha amalgga oshirilayotgan islohotlar*. Toshkent: Hukumat nashriyoti.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2023). *O'zbekiston bank tizimining rivojlanish tendensiyalari va istiqbollari*. Toshkent: Markaziy bank matbuot xizmati.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. (2022). *Kambag'allikni qisqartirish va tadbirdorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida*. Toshkent: Prezident matbuot xizmati.

Stiglitz, J. & Weiss, A. (1981). *Credit Rationing in Markets with Imperfect Information. The American Economic Review*, 71(3), 393-410.

World Bank. (2020). *Financial Inclusion and Development: A Global Perspective*. Washington, DC: The World Bank.

Xudayarova X.A. (2024) "TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONI, UNDAGI MUAMMOLAR VA ULARNI YECHISH YO'LLARI". YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT aprel. № 4-son.